

Qabul qilindi: 06.01.2024

Chop etildi: 28.02.2025

UDK: 910.4:572.1: 398.342

SUG'ORISH TIZIMI TARIXI HAQIDA QAYDLAR (YAHYO G'ULOMOVNING "XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA)

*Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich, Guliston davlat pedagogika
instituti dotsenti*



<https://orcid.org/0009-0006-6069-009X>

e-mail:
kanimkulov812310@gmail.com

NOTES ON THE HISTORY OF THE IRRIGATION SYSTEM (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF YAHYA GHULOMOV "THE HISTORY OF IRRIGATION OF KHWAREZM")

*Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich, Associate professor of
Gulistan State Pedagogical Institute*

ЗАМЕТКИ ОБ ИСТОРИИ ИРРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ (НА ПРИМЕРЕ РАБОТЫ ЯХЁ ГУЛЯМОВА "ИСТОРИЯ ОРОШЕНИЯ ХОРЕЗМА")

*Канимкулов Олимжон Шералиевич, доцент Гулистанского
государственного педагогического института*

Annotatsiya: Maqolada birinchi o'zbek arxeolog olimi Yahyo G'ulomov ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan sug'orilish tarixi bo'yicha olib borgan izlanishlari haqida so'z boradi. Ayniqsa, olimning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarini o'rganishning ilmiy ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada Y.G'ulomovning ushbu asari bo'yicha zamondoshlari fikr-mulohazalari o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Yahyo G'ulomov, T.Mirg'iyosov, sun'iy sug'orish tarixi, V.V.Bartold, Qubatau tog'i, "Uzkomstaris", M.E.Masson, Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, S.P.Tolstov, M.Yu.Bayoniy, "Pravda Vostoka" gazetasi, "Xorazmning sug'orilish tarixi asari, Kaulbars.

Abstract: The article describes the research of the first Uzbek archaeologist Yahya Gulomov on the history of irrigation, which is one of the main areas of his scientific activity. In particular, the scientific significance of studying the scientist's work "History of Irrigation of Khorezm" is discussed. The article also provides the opinions of contemporaries about this work of Y. Gulomov.

Key words: Yahya Gulomov, T.Mirgiyasov, history of artificial irrigation, V.V.Bartold, Mount Kubatau, "Uzkomstaris", M.E.Masson, Khorezm archaeological and ethnographic expedition, S.P.Tolstov, M.Yu.Bayony, newspaper "Pravda Vostoka", "History of Khorezm Irrigation", Kaulbars.

Аннотация: В статье рассказывается об исследованиях первого узбекского археолога Яхё Гуломова по истории ирригации, которая является одним из основных направлений его научной деятельности. В частности, обсуждается научная значимость изучения труда учёного "История ирригации Хорезма". Также в статье приводятся мнения современников об этом творчестве Я.Гуломова.

Ключевые слова: Яхё Гулямов, Т.Миргиясов, история искусственного орошения, В.В.Бартольд, гора Кубатау, "Узкомстарис", М.Э.Массон, Хорезмская археолого-этнографическая экспедиция, С.П.Толстов, М.Ю.Баеный, газета "Правда Востока", "История Хорезмского ирригации", Кaulбарс.

KIRISH. Ma'lumki, O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo'lib, bu mintaqa suv resurslari jihatidan bir qadar cheklangan. XX-XXI asrlarda dunyo aholisining o'sishi oziq-ovqat resurslariga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Oziq-ovqat resurslariga bo'lgan talabni qishloq xo'jaligini rivojlantirish hisobiga qondirish mumkinligini hisobga oladigan bo'lsak, qishloq xo'jaligining mamlakatlar iqtisodiy hayotida tutgan o'rnini naqadar katta ekanligini anglaymiz. Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti esa bevosita suv va suv resurslari, sug'orish tizimining nechog'li to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Shunday ekan, sug'orish tizimi, u bilan bog'liq tadqiqotlar ham mamlakat iqtisodiy ahvoriga katta ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Bu borada mamlakatimiz tarixida sug'orish tizimi bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan olim Yahyo G'ulomovning izlanishlarini alohida qayd etib o'tmog'imiz kerak. Yahyo G'ulomovning **"Xorazmning sug'orilish tarixi"** asari sharq tamadduni paydo bo'lishi va rivojida o'ta muhim o'rin tutgan sug'orish tizimi borasida qimmatli ma'lumot beruvchi muhim manba hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Yahyo G'ulomov shaxsi va uning ilmiy faoliyatiga olimning shogirdlari A.Muhammadjonov [1], A.Asqarov [2;3, 79-92 bb] va boshqalar o'z tadqiqotlarida to'xtalib o'tgan. Ular orasida A.Muhammadjonovning "Yahyo G'ulomovni xotirlab" asari, A.Asqarov maqolalari va B.V.Luninning bibliografik risolasini [4,68 b] alohida ajratib ko'rsatish mumkin. O'zbekiston Milliy Arxivi, O'zR FA Asosiy kutubxonasi arxivi, Tarix va arxeologiya instituti arxivi hamda olimning uy arxivi hujjatlariga asoslanib aytishimiz mumkinki, 50-70 yillarga kelib akademik Yahyo G'ulomov nafaqat Markaz yoki respublika olimlari, balki, chet el hamda mamlakatimizning turli xil hududlaridan tariximizni o'rganish, muhofaza qilish masalalarida maslahat olish mumkin bo'lgan ko'zga ko'ringan mahalliy tarixchi olim bo'lgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

TADQIQOTNING METODOLOGIYASI. Mazkur ilmiy maqolaning ilmiy-nazariy asosi tarix fani oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda xolisonalik, haqqoniylik, tarixiylik va hujjatli ravishda asoslanganlik tamoyillariga tayanadi.

Maqolamizda, akademik Yahyo G'ulomov shaxsi, uning mintaqa suv resurslari, sug'orish tizimi va dehqonchilik madaniyati, suv resurslarining mamlakatlar hayotida tutgan o'rnini tadqiq etishdagi xizmatlari umumlashtiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Yahyo G'ulomovning ilmiy faoliyati ko'p qirrali bo'lib, eng qadimgi davrlardan O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi, ilk shaharlarning vujudga kelishi va shaharsozlik madaniyatining taraqqiyoti tarixi, o'rta asrlarda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolari, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari tarixining o'rganilishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Olim o'z ilmiy izlanishlarida Xorazm, Zarafshon vohasi, Farg'ona, Mirzacho'l singari mintaqalarda sun'iy sug'orishning vujudga kelishi va uning rivojlanish tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratdi. Zero, o'tmishda mamlakatlar hamda xalqlarning taraqqiyoti ko'pchilik hollarda sun'iy sug'orish tizimining qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi va rivojlanganligiga bog'liq bo'lgan. Bu jaryon bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Qadimgi Xorazmda taraqqiyotining o'ziga xosliklaridan biri bu yerda qadimdan sun'iy sug'orishga asoslangan madaniyatning rivoji hisoblanadi. Xorazm taraqqiyoti sun'iy sug'orishga asoslangan tarixiy-geografik mintaqaning eng shimoliy nuqtasi hisoblanadi. Bu yerda sun'iy sug'orish o'ziga xos texnik taraqqiyotga tayanib ish ko'rgan. Shu sababli ham Ya.G'ulomov o'zining ilk mustaqil arxeologik izlanishlarini Xorazm mintaqasida boshladi [5,6-8-bb].

1937-yildan 1950-yilgacha Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi (II jahon urushi yillarida (1940-1945) ekspeditsiya o'z ishini vaqtincha to'xtatib turgan) tarkibida olib borilgan ko'p yillik izlanishlar natijasida Xorazmning necha ming yillik ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini to'liq aks ettirgan bir qator ilmiy asarlar yuzaga keldi [6,2-14-bb]. Sharq mamlakatlari, shu jumladan Markaziy Osiyoning iqlim sharoiti va yer tuzilishi qadim zamonlardan boshlab kanallar qazish va suv inshootlari vujudga keltirish orqali sun'iy sug'orishni dehqonchilikning asosiy vositalaridan biriga aylantirganligi, shuning uchun ham Sharq mamlakatlarida sug'orish davlat ishi, jamoalar

uyushmasi va umumxalq ishining bir qismi ekanligi Ya.G'ulomovning "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida o'z isbotini topgan. Asar 1957-yil rus, 1959-yilda esa o'zbek tillarida nashr etilgan. Yahyo G'ulomovning bu asari o'zining hajmi, ilmiy xulosalarning teranligi bilan ajralib turadi [8,10-b;11]. Asar muqaddima, 9 bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asarning I-IV boblarida qadimgi zamonlardan to milodiy VI asrgacha bo'lgan uzoq tarixiy davr mobaynidagi Xorazm tarixi, iqlimi, geografiyasi va dehqonchilikdagi sun'iy sug'orilishning kelib chiqishi aks etgan(18-113 betlar). V-VII boblarida esa Markaziy Osiyoda sun'iy sug'orilishning ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari, VII bobda Amudaryo, Kaspiy va Orol dengizlari sohillarida o'zbek, turkman va qoraqalpoq qabilalarining tarqalishi bayon qilinadi(102–248-betlar). Asarning VIII-bobida sug'orilish texnikasining tarixiy rivojlanishi, uning xilma-xilligi yoritiladi. Shuningdek, bu bobda xalqimizning donishmandligi, ko'p mingyillik tajribasi hamda suvdan unumli foydalanish uchun asrlar bo'yi olib borgan qahramonliklari ham aks etgan(237-267 betlar). Nihoyat, kitobning oxirgi IX bobi 1917-yildan keyingi sug'orilish tarixiga bag'ishlangan (280–291-betlar) [8]. Yahyo G'ulomov ushbu asarini yozish jarayonida Xorazmda o'zi va S.P.Tolstov o'tkazgan arxeologik ekspeditsiya natijalariga tayanibgina qolmasdan, ilgari davrda sug'orilish tarixiga, suv xo'jaligi tizimiga doir yaratilgan asarlarni ham qunt bilan o'rgangan. Aynan xonlikning bosh mirobi bo'lib ishlagan Munis, Ogahiy asarlarini, Xorazm tarixi bilimdoni Bayoniy asarlarini chuqur o'rganadi. Shuningdek, XIX asr oxirlarida Xorazmda bo'lib bebaho manbalar to'plagan A.V.Kaulbars, A.L.Kun singari olimlar asarlariga e'tibor qaratdi. Olim V.Bartoldning "Turkistonning sug'orilish tarixi" asarini ham chuqur o'rganadi, shu bilan birga uning ayrim fikr-mulohazalariga e'tiroz bildiradi[9,1735-1740-bb]. Ya.G'ulomov V.V.Bartold Xorazmda bo'lmagan va Xorazmning tarixiy topografiyasini yaxshi bilmagan hamda yuqoridagi asarini asosan yozma manbalar asosida yozgan deb hisoblagan[11,26-30-bb]. Bundan tashqari arab, fors tilidagi qo'lyozma asarlar va ularning ingliz, nemis, rus tilidagi nashrlari hamda rus mualliflarining kitoblaridan 400 dan ortig'ini o'qib-o'rganib, o'z asarida shu manbalardan iqtiboslar keltirib o'tdi.

Yahyo G'ulomovning 1930–1940-yillarda qadimgi Xorazm yerlarida ilmiy tadqiqotlar paytida o'ttirgan tajribasi keyingi o'n yilliklar davomida Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Janubiy O'zbekiston viloyatlarida ham sug'orma dehqonchilik madaniyati tarixini o'rganishda juda qo'l kelgan edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Respublikamizning turli hududlarida olib borgan izlanishlari olimni nafaqat tarix va arxeologiya fanlari, balki, sug'orma dehqonchilik madaniyati tarixi bilan maxsus shug'ullangan olim sifatida katta shuhrat qozonishiga sabab bo'ldi.

Qolaversa, Yahyo G'ulomovning olimona xulosalari tarix fanida yirik nazariy masalalarning to'g'ri yechimini belgilab berganligi bilan ham ahamiyatlidir. Yahyo G'ulomovning Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi tadqiqotlari Amudaryoning o'ng qirg'og'ida Beruniy, To'rtko'l tumanlarida Qirqqiz, Yonbosh qal'a, Tuproqqal'a, Teshikqal'a, Qal'aliqir, Ko'zaliqir kabi yodgorliklarni o'rganib, u yerlar qadimda sug'orilib ekin ekilganini, keyin cho'l bo'lib qolgan yerlarni ko'rsatib berdi. Hozir bu yerlarda sug'orish ishlari tiklanib, bog'lar, paxtazorlar vujudga kelgan[11,26-30-bb].

Bugungi kunda sug'orish tizimi, suv resurslaridan unumli foydalanish butun dunyoda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan bir vaqtda akademik olimning tadqiqotlari qanchalik muhim ekanligi o'z aksini topmoqda. Bu borada bugungi xalq xo'jaligi tizimida irrigatsiya va melioratsiya tizimining qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, sohada olib borilayotgan ishlarning zamonaviy, ilg'or usullarini qo'llashda tarixiy tadqiqotlarning natijalaridan foydalanish foydadan xoli bo'lmaydi, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мухаммаджонов А.Р. Яхё Ғуломовни хотирлаб. Тошкент. Фан. 2000 й.
2. Асқаров А. Ўзбек археологиясининг отаси. Ўзбекистон овози. газ, 1993 й. 1 май.
3. Я.Ғуломов таваллудининг 100 йиллигига бағишланган Республика илмий-амалий конференцияси тўплами. Тошкент. 2008. 1-8 бет, 79-92 бет.
4. Луний Б. Яхья Гулямович Гулямов. Ташкент; Фан, 1979. – стр 68.

5. Yahya G‘ulam. O‘tmish izlari. //Guliston, 1937-yil № 4, 6-8 bet.
6. Yahyo G‘ulomovning Xorazm hududlarida tarixiy yodgorliklarni o‘rganish maqsadida olib borgan kuzatuv ishlari kundalik daftaridan, 1936-1939-yillar. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi, F-2883, R-1, yig‘majild 52,2-14 bet.
7. Yahyo G‘ulomov faoliyati bilan bog‘liq asarlar nazarda tutilmoqda. Qarang, masalan: Yahya G‘ulamov. Qizilqum ichida qadimgi madaniyat izlari. //Sotsialistik fan va turmush, 1939-yil № 7-8, 39-41 bet. O‘z. Milliy Arxivi, F-2883, R-1, yig‘majild 6; O‘sha muallif. Tarixiy yodnomalar. //Sotsialistik fan va turmush. 1939-yil. № 12, 23-25 bet.
8. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи, қадимги замонлардан ҳозиргача. Тошкент. Фан. 1959, 10-бет.
9. Sheraliyevich K.O. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 1735-1740.
10. Толстов. С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент. 1964, Фан, 20-бет.
11. Kanimkulov O.S. Yahyo Gulyamov’s “History Of Irrigation In Khorezm”-An Important Source in the Study of the History of the Ancient Culture of Irrigated Agriculture In The Territory of Uzbekistan //Current Research Journal of History. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 26-30.

